

**TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PHD 03/30.12.2021.P.26.02
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

SAFAYEVA IRODA ABDUMURATOVNA

**MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI DIREKTORLARIDA
SHAXSIY SIFATLARNI RIVOJLANTIRISHNING
PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI**

19.00.06 – Yosh va pedagogik psixologiya. Rivojlanish psixologiyasi

**PSIXOLOGIYA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent - 2024

**Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации
доктора философии (PhD) по психологическим наукам**

**Contents of Dissertation Abstract of the Doctor of Philosophy (PhD) on the
Psychological Sciences**

Safayeva Iroda Abdumuratovna

Мaktabgacha ta'lim tashkiloti direktorlarida shaxsiy sifatlarni rivojlantirishning
psixologik xususiyatlari..... 3

Сафаева Ирода Абдумуратовна

Психологические особенности развития личных качеств у директоров
дошкольных образовательных организаций..... 25

Safayeva Iroda Abdumuratovna

Psychological characteristics of development of personal qualities in directors of
preschool educational organizations..... 49

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works 53

**TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PHD 03/30.12.2021.P.26.02
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

SAFAYEVA IRODA ABDUMURATOVNA

**MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI DIREKTORLARIDA
SHAXSIY SIFATLARNI RIVOJLANTIRISHNING
PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI**

19.00.06 – Yosh va pedagogik psixologiya. Rivojlanish psixologiyasi

**PSIXOLOGIYA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent - 2024

Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.2.PhD/P954 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat pedagogika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.psi-ik.uz) va «Ziyonet» axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Yakubova Guzal Asatullayevna
psixologiya fanlari doktori, dotsent

Rasmiy opponentlar:

Abudurasulov Rustam Abduraimovich
psixologiya fanlari doktori, professor

Shonazarov Asror Maxmaisovich
psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Yetakchi tashilot:

Buxoro davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD03/30.12.2021.P.26.02 raqamli bir martalik Ilmiy kengashning 2024-yil «_____» kuni soat _____ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100185, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko'chasi, 27. Tel: (+99871) 276-82-32; faks (+99871) 276-76-51; e-mail: tdpu_kengash@edu.uz)

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat pedagogika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqam bilan ro'yxatga olingan) (Manzil: 100185, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko'chasi, 27. Tel: (+99871) 276-82-32)

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil « ____ » _____ kuni tarqatildi.

(2024-yil « ____ » _____ dagi ____ raqamli reyestr bayonnomasi).

F.A. Akramova

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

N.B. Atabayeva

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash kotibi, psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Z.T. Nishanova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, psixologiya fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon miqyosidagi jamiyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida insoniyat va jamiyat kelajagi uchun maktabgacha ta'lim tashkiloti direktorlarida shaxsiy sifatlarni rivojlantirish muammosi dolzarb ahamiyatli sifatida e'tirof etilmoqda. AQSHning Garvard universiteti qoshidagi Career Services markazi tomonidan olib borilgan tadqiqotda ta'lim muassasasi direktorlarining 79,8 %ida shaxsiy sifatlarni belgilovchi muhim mezon etib ijodiy kompetentlik belgilangan¹. Nan'yan texnologiya universiteti tomonidan ta'lim muassasasi direktorlarida olib borilgan so'rovnomalar natijalarida esa, ularning 65,5% tomonidan boshqaruv faoliyatida shaxsiy fazilatlar va ijodkorlik jihatlari muhim xususiyat deb belgilangan². Mazkur dalillar o'z navbatida maktabgacha ta'lim tashkiloti direktorlarida shaxsiy sifatlarni rivojlantirishning psixologik xususiyatlarini ilmiy tadqiq etish dolzarb muammolardan bo'lib qolmoqda.

Jahon oliy ta'lim muassasalari va ilmiy-amaliy markazlarida maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktorlarining shaxsiy sifatlarni rivojlantirish bo'yicha ilmiy-amaliy tadqiqotlar olib borilmoqda. Oliy kasbiy ta'lim muassasalari Yevropa assotsiatsiyasi EURASHE va ENIC-NARIC axborot-tizim markazi hamda «XIX asr ta'lim sifatini nazorat qilish bo'yicha Xalqaro komissiya» tomonidan insoniyat, jamiyatning kelajakdagi taraqqiyoti bevosita shaxs kamolotiga bog'liqligi ta'kidlanganligi ta'limga kompetensiyaviy yondashuv asosida direktorlarning raqobatbardoshligini oshirish, ularda shaxsiy sifatlarni shakllantirish orqali kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish, ta'lim sifatini ta'minlash va samaradorlikga erishish dolzarb masala sifatida qarashni taqazo etadi. Bu borada maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktorlarining shaxsiy sifatlarni rivojlantirishda ularning psixologik imkoniyatlarini tahlil qilish, tashkilotda jamoaviy inqirozlarning vujudga kelishini oldini olishda sinergetik-sotsiodinamik metodlar orqali yondashuv masalalari bo'yicha ilmiy-amaliy tadqiqotlarni olib borish dolzarb ahamiyatli muammolardan bo'lib qolmoqda.

Yangi O'zbekistonda so'nggi yillarda maktabgacha ta'lim tashkilotlarini boshqarishning ratsional usullarini amalda qo'llash, direktorlarning salohiyati va kasbiy etukligini oshirish, har bir maktabgacha ta'lim tashkiloti rivojlanish holatini baholash, shuningdek, istiqbolli rivojlanishning muqobil variantlarini ishlab chiqish; innovatsion boshqaruv jarayonida tashkilotning istiqbol maqsadi va imkoniyatini aniqlash bo'yicha tadqiqot ishlari olib borilmoqda. «Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktorlariga zaruriy kasbiy kompetensiyalar ro'yxatini o'z ichiga olgan talablarni belgilash, sertifikatlash tizimini joriy etish»³ ustuvor vazifa sifatida belgilanganligi bu borada olib borilayotgan tadqiqotlarning dolzarbligini oshirmoqda.

O'zbekiston Respublikasining 2023-yil 1-maydagi O'RQ-837-son «O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi to'g'risida» Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida» Farmoni, 2019-yil 8-

¹ www.wcfia.harvard.edu

² www.ntu.edu.sg

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi PQ-4312-son "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" qarori

maydagi PQ-4312-son “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2018-yil 30-sentyabrdagi PQ-3955-son “Maktabgacha ta’lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2018-yil 5-apreldagi PQ-3651-son “Maktabgacha ta’lim tizimini yanada rag‘batlantirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” Qarorlari va boshqa me‘yoriy hujjatlar doirasida belgilangan keng ko‘lamli strategik chora-tadbirlarni amalga oshirishda mazkur ilmiy tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalarni rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning I. «Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda, innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari» ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. O‘zbekiston psixolog olimlaridan Y.M.Asadov, T.M.Adizova, B.S.Abdullayeva, A.M.Jabborov, O.Ch.Kuziyev, N.Z.Jumayev, M.A.Jabborova, V.M.Karimova, D.Narziqulova, B.R.Qodirov, E.G‘.G‘oziyev va boshqalar boshqaruv tizimi, direktor kadrlar kompetensiyasi, ta’lim tizimida innovatsion, strategik, funksional menejmentni shakllantirish masalalarini ilmiy tadqiq etishgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi mamlakatlari psixolog olimlaridan V.Andreeva, A.Ansupov, G.Balixin, T.Bazarov, T.Davidenko, V.Juravlev, E.Kirshbaum, N.V.Kuzmina, YU.Konarjevskiy, I.Marinovskaya, V.Svetkov, A.Grishin, I.Ridanova, M.Ribakova, A.Shipilov, V.Slastenin, N.Shurkova va boshqalar direktorning shaxsiy sifatlarini rivojlantirish sohasida fundamental ishlarni ilmiy tadqiq etishgan.

Xorij mamlakatlari olimlaridan R.Boyatzis, D.Bartram, A.Maslow, J.Rawen, W.Hutmacher, J.Burton, A.Becker, F.Dukes, L.Coser, G.Mead, T.Gordon, K.Thomas, E.Richards, Yu.Sazali, A.Eagly, B.Johnson, U.Lindsey, D.Laynz, P.Smit, S.Sharp va boshqalarning ilmiy tadqiqot ishlarida direktor faoliyati, boshqaruv sifatleri, uning yutuq va kamchiliklari ilmiy tahlil qilingan.

Mavjud nazariy manbalarda direktorlarning boshqaruv faoliyatida shaxsiy sifatlarini rivojlantirishning psixologik imkoniyatlari: boshqaruv samaradorligini oshirish, direktorlarning ijodiy kompetentligini rivojlantirishning tashkiliy-boshqaruv mexanizmlarini belgilash, boshqaruv faoliyatini sog‘lom muhit tamoyillarga asoslangan holda takomillashtirish, faoliyat natijalariga asoslangan masalalar etarlicha tadqiq etilmaganligi bu borada ilmiy tadqiq ishlarini yanada kuchaytirish kerakligini taqazo etmoqda.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya ishi Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejasining OT-F-126 «O‘zbekiston yoshlarida psixologik etuklik ko‘rsatkichlarini o‘rganishning psixodiagnostika vositalarini ishlab chiqish, ilmiy asoslash va amaliyotga tadbiriq etish» loyihasi doirasida bajarilgan (2017-2021 yy.).

Tadqiqotning maqsadi: maktabgacha ta'lim tashkiloti direktorlarida shaxsiy sifatlarni rivojlantirishning psixologik xususiyatlarini tadqiq etish va zarur tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

maktabgacha ta'lim tashkiloti direktorlarida shaxsiy sifatlarni rivojlantirishning psixologik imkoniyatlarini tahlil qilish;

maktabgacha ta'lim tashkiloti direktorlarida shaxsiy sifatlarni rivojlantirish kompetensiyalari va ularning ifodalanish darajasini aniqlash mexanizmlarini takomillashtirish;

maktabgacha ta'lim tashkiloti direktorlarining shaxsiy sifatlarini rivojlantirishning psixokorreksion modelini ishlab chiqish;

maktabgacha ta'lim tashkiloti direktorlarining shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga va takomillashtirishga mo'ljallangan amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqot ob'ekti sifatida maktabgacha ta'lim tashkiloti direktorlarida shaxsiy sifatlarni rivojlantirishning psixologik xususiyatlari belgilanib, A.Avloniy nomidagi pedagoglarni kasbiy rivojlantirish va yangi metodikalarga o'rgatish milliy tadqiqot institutida malaka oshirish kurslari tinglovchilari hamda institutning Andijon, Sirdaryo, Samarqand va Qashqadaryo viloyatlaridagi hududiy malaka oshirish markazlarida 120 nafar maktabgacha ta'lim tashkiloti direktorlari jalb etilgan.

Tadqiqotning predmetini maktabgacha ta'lim tashkiloti direktorlarida shaxsiy sifatlarni rivojlantirishning psixologik xususiyatlari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida suhbat, anketa, kuzatish, metodlaridan, shuningdek, Marlou-Krouning "Shaxsning axloqiy-etik mas'uliyat sifatlarini o'rganish" so'rovnomasi, E.D.Lyusinning "Emotsional intellekt" so'rovnomasi, V.V.Stolin va S.R.Panteleevlarning "Shaxsning o'z-o'ziga munosabatini baholash" metodikasi, hammualliflikda yaratilgan "Maktabgacha ta'lim tashkiloti direktorlarining shaxsiy sifatlari indeksi" (G.A.Yakubova, I.A.Safayeva) ijtimoiy-psixologik so'rovnomasidan foydalanildi. Olingan natijalarning ishonchlilik darajasi matematik statistika metodlaridan Styudentning t-mezoni, K.Pirsonning r-korrelyatsiyasi va faktorli analiz metodlaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

maktabgacha ta'lim tashkiloti direktorlarida shaxsiy sifatlarni psixologik xususiyatlari shaxslararo munosabatlardagi emosional intellekt, shaxsning o'ziga bo'lgan munosabati, o'zini emosional qabul qilishiga asoslanib mehnat tajribasiga bog'liq dinamik rivojlanishga ega ekanligi isbotlangan;

maktabgacha ta'lim tashkiloti direktorlarining shaxsiy sifatlari pedagogik jarayondagi axloqiy-estetik vaziyatlardagi refleksiya, intuisiya, altruistik tuyg'ular ijtimoiy-persepsiya, kommunikativlik, o'ziga bo'lgan ishonchni rivojlanishiga olib kelganligi tufayli kasbiy faoliyatda shaxsning axloqiy-etik mas'uliyatiga bog'liq ifodalanishi dalillangan;

maktabgacha ta'lim tashkiloti direktorlarining shaxsiy sifatlari "inson-inson" munosabatlari tizimida ijtimoiy persepsiyani samimiylik, o'zini idora qilish, kommunikativlikning o'zini qabul qilishga integrativ ifodalanishi tufayli shaxsning o'ziga bo'lgan munosabatiga bog'liq namoyon bo'lishi dalillangan;

maktabgacha ta'lim tashkiloti direktorlarining shaxsiy sifatlarini rivojlantirishda shaxslararo emosional intellekt, kommunikativ kompetentlikni namoyon bo'lishiga ustuvorlik berish muhimligi tufayli shaxsning o'zini boshqarish ko'nikmalariga integrativ ta'sir etish zarurati asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

maktabgacha ta'lim tashkiloti direktorlarining shaxsiy sifatlariga ta'sir etuvchi psixologik omillarga asoslanib, uning namoyon bo'lishini prognoz qilish imkoniyati amaliyotga kiritilgan;

maktabgacha ta'lim tashkiloti direktorlarining shaxsiy sifatleri darajasini aniqlashga qaratilgan ijtimoiy-psixologik so'rovnomalar ishlab chiqilgan va shaxsiy sifatning rivojlanganlik darajasini tadqiq etish uchun psixodiagnostik metodikalar tasniflangan va aprotatsiya qilingan;

maktabgacha ta'lim tashkiloti direktorlarining shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga doir ijtimoiy-psixologik treninglar ishlab chiqilgan va direktor xodim kompetensiyasiga psixologik ta'sir ko'rsatish texnologiyasi amaliyotga joriy etilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqot o'tkazish jarayonida keltirilgan pedagogik-psixologik ma'lumotlar xalqaro miqyosda o'zining ishonchli ekanligini tasdiqlagan diagnostik vositalar orqali to'plangan; o'zaro bir-birini to'ldiruvchi va samaradorlikni oshiruvchi metodlar qo'llanilgan; empirik ma'lumotlar matematik-statistik tahlil qilingan; berilgan taklif va tavsiyalar amaliyotga joriy etilgan, shu bilan birgalikda, olingan yakuniy natijalar vakolatga ega bo'lgan tuzilmalar orqali rasmiy tasdiqlangan ma'lumotnomalar bilan isbotlangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati maktabgacha ta'lim tashkiloti direktorlarining shaxsiy sifatlarini rivojlantirish mexanizmlarining ilmiy asoslanganligi, maktabgacha ta'lim tashkiloti direktorining kasbiy va shaxsiy, ijodiy kompetentligini rivojlantirish modelining ishlab chiqilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ta'lim jarayonida maktabgacha ta'lim tashkiloti direktorlarining shaxsiy sifatlarining rivojlantirishda boshqaruv usullarining takomillashtirilganligi, o'quv modullari mazmuni takomillashtirilganligi, modernizatsiyalashgan axborot-metodik ta'minot ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Maktabgacha ta'lim tashkiloti direktorlarida shaxsiy sifatlarini rivojlantirishning psixologik xususiyatlari masalasini tadqiq etish natijasida:

maktabgacha ta'lim tashkiloti direktorlarida shaxsiy sifatlarini psixologik xususiyatlari shaxslararo munosabatlardagi emosional intellekt, shaxsning o'ziga bo'lgan munosabati, o'zini emosional qabul qilishiga asoslanib mehnat tajribasiga bog'liq dinamik rivojlanishga ega ekanligi isbotlangan ma'lumotlar Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2024-yil 10-noyabrdagi PM-PM-254 son buyrug'i bilan "Ontogenez psixologiyasi. Differensial psixologiya" moduliga kiritilgan (Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy Markazining 2024-yil 13-noyabrdagi PM-PM-254 a-son ma'lumotnomasi). Natijada maktabgacha ta'lim tashkiloti direktorlarida shaxsiy sifatlarini rivojlantirishning psixologik imkoniyatlarini tahlil qilish imkoniyati yaratilgan;

maktabgacha ta'lim tashkiloti direktorlarining shaxsiy sifatleri pedagogik jarayondagi axloqiy-estetik vaziyatlardagi refleksiya, intuisiya, altruistik tuyg'ular ijtimoiy-persepsiya, kommunikativlik, o'ziga bo'lgan ishonchni rivojlanishiga olib kelganligi tufayli kasbiy faoliyatda shaxsning axloqiy-etik mas'uliyatiga bog'liq ifodalanishi dalillangan ma'lumotlar Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiiy markazining 2024-yil 10-noyabrdagi PM-PM-254 son buyrug'i bilan "Ontogenez psixologiyasi. Differensial psixologiya" moduliga kiritilgan (Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiiy Markazining 2024-yil 13-noyabrdagi PM-PM-254 a-son ma'lumotnomasi). Natijada maktabgacha ta'lim tashkiloti direktorlarida shaxsiy sifatleri rivojlantirishning o'ziga xos mexanizmlari ochib berilgan;

maktabgacha ta'lim tashkiloti direktorlarining shaxsiy sifatleri "inson-inson" munosabatlari tizimida ijtimoiy persepsiyani samimiylik, o'zini idora qilish, kommunikativlikning o'zini qabul qilishga integrativ ifodalanishi tufayli shaxsning o'ziga bo'lgan munosabatiga bog'liq namoyon bo'lishi dalillangan ma'lumotlar Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiiy markazining 2024-yil 10-noyabrdagi PM-PM-254 son buyrug'i bilan "Ontogenez psixologiyasi. Differensial psixologiya" moduliga kiritilgan (Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiiy Markazining 2024-yil 13-noyabrdagi PM-PM-254 a-son ma'lumotnomasi). Natijada maktabgacha ta'lim tashkiloti direktorlarining shaxsiy sifatleri rivojlanishiga shaxsning o'ziga bo'lgan munosabatini ta'siri ochib berilgan;

maktabgacha ta'lim tashkiloti direktorlarining shaxsiy sifatleri rivojlantirishda shaxslararo emosional intellekt, kommunikativ kompetentlikni namoyon bo'lishiga ustuvorlik berish muhimligi tufayli shaxsning o'zini boshqarish ko'nikmalariga integrativ ta'sir etish zarurati asoslangan ma'lumotlar Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiiy markazining 2024-yil 10-noyabrdagi PM-PM-254 son buyrug'i bilan "Psixokorreksiya" moduliga kiritilgan (Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiiy Markazining 2024-yil 13-noyabrdagi PM-PM-254 a-son ma'lumotnomasi). Natijada maktabgacha ta'lim tashkiloti direktorlarining shaxsiy sifatleri rivojlantirishning psixokorreksion modeli ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiyaning asosiy natijalari 2 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Tadqiqotning asosiy natijalari bo'yicha 7 ta ilmiy maqola, 5 tasi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tavsiya etgan jurnallarda, shu jumladan, 1 tasi xorijiy jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi kirish, uch bob, umumiy xulosa va amaliy tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 138 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, muammoning o'rganilganlik darajasi, tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bog'liqligi, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti, predmeti, usullari, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, joriy qilinishi, aprotatsiyasi va e'lon qilinganligi, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Maktabgacha ta'lim tashkiloti direktorlarida shaxsiy sifatlarni rivojlantirishning nazariy asoslari**» deb nomlangan birinchi bobida psixologik tadqiqotlarda maktabgacha ta'lim tashkiloti direktorlarida shaxsiy sifatlar fenomenini o'rganishning mohiyati va shaxsiy sifatlar masalasini tadqiq etishning zamonaviy yondashuvlari hamda maktabgacha ta'lim tashkiloti direktorlarida kasbiy mas'uliyat hissini shakllanishining psixologik xususiyatlariga oid manbalar asosida ilmiy-nazariy tahlil qilingan.

O'zbekistonda psixolog olimlarning ko'plab ilmiy-tadqiqot ishlarida M.G.Davletshin, E.G.G'oziyev, B.R.Qodirov, A.M.Jabborov, Sh.R.Barotov, V.M.Karimova, F.F.Ganjyev, F.I.Xaydarov, Sh.B.Saparov, K.B.Qodirov, Sh.J.Usmanova, S.X.Djalilova va boshqalar shaxsiy sifatlar, kasbiy ma'suliyat muammosini tadqiq qilishda ijtimoiy muhit ta'siri, kasbiy sifatlarning barqarorligi va dinamikasining tarkibiy qismlari kabi muammolarni ilmiy-amaliy jihatdan tadqiq qilganlar.

Psixologik tadqiqotlarda shaxsiy sifatlar fenomenini o'rganish muammosi S.I.Ojegov, Z.Freyd, L.I.Dementiy, Y.S.Rapasev, S.V.Bessmertnaya, V.P.Pryadein, K.Muzdibaev, G.S.Sullivan, V.E.Frankl, K.A.Abulxanova-Slavskaya, A.N.Rean, V.N.Drujinina, E.G.Eydemiller, Y.E.Aleshina, V.F.Safin, E.H.Sidorova, N.A.Golovka, A.A.Grachev, J.E.Zavadskaya, I.P.Pavlov, V.M.Bexterev, B.G.Ananov, V.G.Tugarinov, V.N.Myasishev, A.N.Leontev, V.S.Minkina, A.A.Rean, J.P.Kolominskiy, I.S.Kon, S.L.Rubinshteyn, I.N.Speranskiy, F.M.Yusupov kabi olimlar tadqiqotlarida o'z aksini topgan.

K.Muzdibaevning so'zlariga ko'ra, shaxsiy sifatlar, avvalo, mutaxassisning rasmiy, kasbiy vazifalarni samarali bajara olish tajribasi bilan bog'liq bo'lib, aynan shu jarayon mas'uliyatlik darajasini belgilaydi. Ya'ni, u orqali kasbiy javobgarlik baholanadi. Bunday shaxslar vazifalarni bajarishda qat'iy, rejali, ijtimoiy faoldirlar. Muallifning so'zlariga qo'shimcha sifatida, bizningcha bugungi kun mutaxassisida kreativlik, refleksiya, axborot savodxonligi, mustaqillik, muammoni echish kabi kompetensiyalar mavjudligi kasbiy mas'uliyat darajasini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

Dissertatsiyaning «**Maktabgacha ta'lim tashkiloti direktorlarida shaxsiy sifatlarni rivojlantirishning empirik tahlili**» deb nomlangan ikkinchi bobi o'rganilayotgan muammoning empirik tahliliga bag'ishlangan bo'lib, ushbu bobda tadqiqotning nazariy-metodologik asoslari, tadqiqotda qo'llanilgan metodlarning umumiy tavsifi, o'tkazish tartibi o'z aksini topgan.

Marlou-Krouning “Shaxsning axloqiy-etik mas’uliyat sifatlarini o‘rganish” so‘rovnomasi natijalari (n=120)

Shkalalar nomi	O‘rtacha(M)		Farqlar
	5 yilgacha mehnat tajribasiga ega bo‘lganlar, n=70	5 yildan ko‘p mehnat tajribasiga ega bo‘lganlar, n=50	t
Axloqiy – estetik vaziyatlarga refleksiya	6,8	8,5	-2,3*
Axloqiy – estetik sohadagi intuitsiya (sezgirlik)	6,4	8,3	-2,4*
Ekzistensial mas’uliyat (mavjud bo‘lgan)	8,7	9,6	-1,8
Altruistik (fidoiylik) tuyg‘ular	7,5	9,6	-2,3*
Axloqiy – estetik qadriyatlar	8,6	8,9	-1,6

Izoh: *-p<0,05, **-p<0,01,***-p<0,001

Marlou-Krouning “Shaxsning axloqiy-etik mas’uliyat sifatlarini o‘rganish” so‘rovnomasi bo‘yicha olingan dastlabki natijalar tahliliga ko‘ra, “axloqiy – estetik vaziyatlarga refleksiya” ($t=-2,3$; $p<0,05$), “axloqiy – estetik sohadagi intuitsiya (sezgirlik)” ($t=-2,4$; $p<0,05$) hamda “altruistik (fidoiylik) tuyg‘ular” ($t=-2,3$; $p<0,05$) omillari bo‘yicha ahamiyatli tafovutlar qayd etildi.

Metodikaning dastlabki “axloqiy – estetik vaziyatlarga refleksiya” omili bo‘yicha, besh yildan ortiq mehnat tajribasiga ega bo‘lgan maktabgacha ta’lim tashkiloti direktorlari yuqori natijani qayd etdi ($t=-2,3$; $p<0,05$). Mazkur natijalar tahliliga ko‘ra, ularda ijodiy faoliyatni yo‘lga qo‘yish, fikrlash, tahlil qilish, muammoli masalalarga e’tibor berish, nostandart muammolarni hal qilish, qiyin vaziyatlarga tezda moslashish, yangi qarashlar va qadriyatlarni etarli darajada idrok etish hamda yangi g‘oyalarga ochiqlik kabi xususiyatlar dalillandi. Mazkur xususiyatlar, besh yildan ortiq mehnat tajribasiga ega bo‘lgan maktabgacha ta’lim tashkiloti direktorlarida shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, ularda axloqiy-estetik tarbiyasini rivojlantirish jarayonida talab darajasidagi aqliy faoliyat hamda psixo-terapiya topshiriqlarini amalga oshirish natijasida dadillik hamda shaxsiy fazilatlarini oshirishi dalillandi.

Navbatdagi “axloqiy – estetik sohadagi intuitsiya (sezgirlik)” omili bo‘yicha olingan natijalar tahliliga ko‘ra, besh yildan ortiq mehnat tajribasiga ega bo‘lgan maktabgacha ta’lim tashkiloti direktorlarida ustunlik qilishi aniqlandi ($t=-2,4$; $p<0,05$). Jumladan, besh yildan ortiq mehnat tajribasiga ega bo‘lgan maktabgacha ta’lim tashkiloti direktorlarida haqiqatni dalil bilan isbotlamasdan, bevosita ichki kechinmalar bilan anglab olish qobiliyati, axborotlarni fikran ilg‘ab olish yo‘li bilan tajriba doirasidan chiqish, shaxsiy qobiliyati yoki bilib olinmagan aloqalar, qonuniyatlarni jonli shaklda umumlashtirish kabi jihatlar asoslandi. Bu shundan dalolat beradiki, “axloqiy – estetik sohadagi intuitsiya (sezgirlik)” yuqori bo‘lgan direktorlarda ijodiy

tafakkur, aqliy qobiliyat darajasi, voqea-hodisani oldindan payqay bilish imkoniyati yuqori bo'ladi.

Navbatdagi "altruistik (fidoiylilik) tuyg'ular" omili besh yildan ortiq mehnat tajribasiga ega bo'lgan maktabgacha ta'lim tashkiloti direktorlarida yuqori natijani ko'rsatdi ($t=-2,3$; $p<0,05$). Aniqlanishicha, ularda o'z manfaatlariga asoslangan boshqa mustaqil motivlardan farqli ravishda uning asosida o'zgalarga beg'araz g'amxo'rlik qilish, jamoa uchun o'zini fido qilish, kasbiy fazilatlarni his etish ehtiyoji, axloqiy hislarni, o'zgalarning emotsiyalarini tushunish, tahlil qilish, ijtimoiy persepsiya qobiliyatlarini o'zida mujassamlashtirgan ijtimoiy hamda emotsional bilimdonlik, empatiya, o'z-o'zini boshqarish, axloqiy xulq motivlari, ijtimoiy fazilat hamda ijtimoiy intellektning mavjudligi aniqlandi. Mazkur xususiyatlar besh yildan ortiq mehnat tajribasiga ega bo'lgan maktabgacha ta'lim tashkiloti direktorlarida shaxsiy sifatlarni rivojlantirishda, direktorlik xislatlarini yanada oshirishga xizmat qiladi.

"Ekzistensial mas'uliyat (mavjud bo'lgan)" hamda "axloqiy – estetik qadriyatlar" omili bo'yicha ahamiyatli farqlar kuzatilmadi. Bu shundan dalolat beradiki, besh yilgacha mehnat tajribasiga ega bo'lgan maktabgacha ta'lim tashkiloti direktorlarida hamda besh yildan ortiq mehnat tajribasiga ega bo'lgan maktabgacha ta'lim tashkiloti direktorlarida tashvish, umidsizlik, o'zidan begonalashish, ziddiyatlarni boshdan kechirish kabi holatlar aniqlanmadi. Shuningdek, direktorlarda ma'naviy, axloqiy, intellektual va kasbiy jihatdan etuk, milliy g'urur va o'z-o'zini anglash, haqiqatga intilish, mehnatsevarlik kabi jihatlar mavjud ekanligi asoslandi.

2-jadval

D.Lyusinning "Emotsional intellekt" so'rovnomasi natijalari (n=120)

Shkalalar nomi	O'rtacha(M)		Farqlar t
	5 yilgacha mehnat tajribasiga ega bo'lganlar, n=70	5 yildan ko'p mehnat tajribasiga ega bo'lganlar, n=50	
Shaxslararo emotsional intellekt	5,4	7,5	-2,5*
Ichki emotsional intellekt	7,6	5,3	-2,6*
Emotsiyalarni tushunish	5,8	7,6	-2,7*
Emotsiyalarni boshqarish	6,5	7,4	-1,6
Boshqalarni emotsiyasini tushunish	6,8	8,9	-2,1*
Boshqalarni emotsiyasini boshqarish	7,8	8,6	-1,5
O'zini emotsiyasini tushunish	9,7	8,4	-1,6
O'zini emotsiyasini boshqarish	8,6	8,9	-1,8
Tashqi ta'sirlardan o'z emotsiyasi nazorati	6,8	8,7	-2,4*

Izoh: *- $p<0,05$, **- $p<0,01$, ***- $p<0,001$

D.Lyusinning "Emotsional intellekt" so'rovnomasi bo'yicha olingan natijalar 2-

jadvalda berilgan.

D.Lyusinning “Emotsional intellekt” so‘rovnomasi orqali olingan dastlabki natijalari tahliliga ko‘ra, “shaxslararo emotsional intellekt” ($t=-2,5$; $p<0,05$), “ichki emotsional intellekt” ($t=-2,6$; $p<0,05$), “emotsiyalarni tushunish” ($t=-2,7$; $p<0,05$), “boshqalarni emotsiyasini tushunish” ($t=-2,1$; $p<0,05$) hamda “tashqi ta’sirlardan o‘z emotsiyasi nazorati” ($t=-2,4$; $p<0,05$) omillar bo‘yicha ahamiyatli farqlar mavjudligi aniqlandi.

Metodikaning “shaxslararo emotsional intellekt” omili bo‘yicha, besh yildan ortiq mehnat tajribasiga ega bo‘lgan maktabgacha ta’lim tashkiloti direktorlarida yuqori ko‘rsatkich kuzatildi ($t=-2,5$; $p<0,05$). Bu shundan dalolat beradiki, besh yildan ortiq mehnat tajribasiga ega bo‘lgan maktabgacha ta’lim tashkiloti direktorlarida boshqa odamlarning his-tuyg‘ularini tushunish va boshqarish qobiliyatining mavjudligi bilan izohlanadi. Bu esa ularda tarbiyachilarning his-tuyg‘ularini tushunish, ularda vujudga keladigan turli qiyinchiliklarni bartaraf etishda hamda bolalarni tarbiya jarayonini amalga oshirishda muhim o‘rin tutadi. Shuningdek, mazkur xususiyatlar ulardagi kasbiy fazilatlarni oshishida xizmat qiladi.

Navbatdagi “ichki emotsional intellekt” omiliga ko‘ra, besh yilgacha mehnat tajribasiga ega bo‘lgan maktabgacha ta’lim tashkiloti direktorlarida ijobiy natijani qayd etdi ($t=-2,6$; $p<0,05$). Mazkur holatni besh yilgacha mehnat tajribasiga ega bo‘lgan maktabgacha ta’lim tashkiloti direktorlaridagi shaxslararo munosabatlarda emotsional intellektning tayanch mezonlarini yaqqol namoyon bo‘lishi, ya’ni shaxslararo munosabatda samimiylik, ijtimoiy talablarga erkin moslashish, empatik, ichki emotsiyalarini yashirmaslik, o‘z emotsiyalarini boshqarishga urinish kabi jihatlarni ustuvorlik qilishi bilan izohlash mumkin.

“Emotsiyalarni tushunish” omili bo‘yicha ahamiyatli tafovut mavjud bo‘lib, besh yildan ortiq mehnat tajribasiga ega bo‘lgan maktabgacha ta’lim tashkiloti direktorlarida yuqori natija kuzatildi ($t=-2,6$; $p<0,05$). Mazkur olingan natijalar tahliliga ko‘ra, ularda o‘zlarining va boshqalarning his-tuyg‘ularini tushunish qobiliyatining yuqori darjada ekanligi dalillandi. Bu esa ularda turli muammolar tufayli faoliyat yuritishda qiyinchilikka uchragan tashkilot xodimlari bilan individual tushuntirish olib borishda qo‘l keladi. Shuningdek, ulardagi shaxsiy sifatlarning rivojlanishida muhim bosqich bo‘lib xizmat qiladi.

Keyingi “boshqalarni emotsiyasini boshqarish” omili bo‘yicha, besh yildan ortiq mehnat tajribasiga ega bo‘lgan maktabgacha ta’lim tashkiloti direktorlarida yuqori natijani ko‘rsatdi ($t=-2,1$; $p<0,05$). Jumladan, ularda boshqalarning emotsional holatlarini tashqi ko‘rinishlariga (yuz ifodalari, imo-ishoralar, ovozli tovushlar) va intuitiv ravishda hissiy holatini tushunish qobiliyati hamda ichki holatlariga nisbatan sezgirlik mavjudligi asoslandi. Buni esa ulardagi tajribaning yuqoriligi, ko‘p yillardan beri shu faoliyat bilan shug‘ullanib kelayotganliklari bilan belgilaymiz. Bu esa ulardagi kasbiy qobiliyatlarning hamda kasbiy fazilatlarning yanada oshishiga xizmat qiladi.

Metodikaning so‘nggi “tashqi ta’sirlardan o‘z emotsiyasi nazorati” omili bo‘yicha ham ahamiyatli tafovutlar mavjud bo‘lib, besh yildan ortiq mehnat tajribasiga ega bo‘lgan tashkilot direktorlarida ijobiy natija qayd etildi ($t=-2,4$; $p<0,05$). Demak, mazkur holatni biz besh yildan ortiq mehnat tajribasiga ega bo‘lgan tashkilot

direktorlarida bu davrga kelib, o'z emotsional holatlarini tushunish va boshqarish istagining ustuvorligi va o'zlarining his-tuyg'ularining tashqi ko'rinishlarini boshqarishga extiyojni kuchayganligi kabi psixologik omillar bilan izohlashimiz mumkin. Qolaversa, insonning tajribasi oshavergani sayin tashqi ta'sirlar, ya'ni yot va begona fikr, g'oya, qadriyat, fazilat va odatlarga nisbatan sezgir va sinchkov bo'lishadi. Buning asosida esa yangi va noadatiy ta'sirlarga nisbatan emotsional barqarorlikni yuzaga kelish extimoli nazarda tutiladi. Shu sababli besh yildan ortiq mehnat tajribasiga ega bo'lgan tashkilot direktorlarida o'z emotsiyasini nazorat qilishga, ayniqsa emotsional intellektni ko'proq ishlatishga qodir bo'lib borishadi. Mazkur omillar esa ulardagi intellektual qobiliyatlar darajalarini namoyon etishga hamda kasbiy fazilatlarni yuksalishiga xizmat qiladi.

Navbatdagi "Shaxsning o'z-o'ziga munosabatini baholash" metodikasi bo'yicha olingan natijalar 3-jadvalda berilgan.

"Shaxsning o'z-o'ziga munosabatini baholash" metodikasi bo'yicha olingan dastlabki natijalar tahlil qilindi. Jumladan, «samimiylik» ($t=2,5; p\leq 0,05$), «o'z-o'ziga ishonch» ($t=3,4; p\leq 0,05$), «o'z-o'zini idora qilish» ($t=2,2; p\leq 0,05$), «o'z-o'ziga munosabatning aks etishi» ($t=2,4; p\leq 0,05$), «o'z-o'zini qabul qilish» ($t=2,1; p\leq 0,05$) omillarida ishonchli farqlar kuzatildi.

Metodikaning dastlabki «samimiylik» omili bo'yicha ahamiyatli tafovutlar aniqlangan bo'lib, besh yildan ortiq mehnat tajribasiga ega bo'lgan tashkilot direktorlarida yuqori natija kuzatildi ($t=2,5; p\leq 0,05$). Ma'lum bo'lishicha, besh yildan ortiq mehnat tajribasiga ega bo'lgan tashkilot direktorlarida ota-onalarni qabul qilishda, xodimlar bilan munosabatlarni amalga oshirishda hamda bolalar bilan muloqot qilishda samimiylik mavjudligi aniqlandi. Chunki, ulardagi mehnat tajribasining yuqoriligi, shaxslararo munosabatlarga kirishimlilik, emotsional jihatdan bosiqlik, turli muammoli vaziyatlarni ham xushmuomalalik bilan bartaraf etishlari yaxshi rivojlangan ekan.

3-jadval

"Shaxsning o'z-o'ziga munosabatini baholash" metodikasi natijalari (n=120)

Shkalalar nomi	O'rtacha(M)		Farqlar t
	5 yilgacha mehnat tajribasiga ega bo'lganlar, n=70	5 yildan ko'p mehnat tajribasiga ega bo'lganlar, n=50	
Samimiylik	7,4	9,5	-2,5*
O'z-o'ziga ishonch	7,1	10,6	-3,4*
O'z-o'zini idora qilish	6,5	8,9	-2,2*
O'z-o'ziga munosabatning aks etishi	8,2	6,3	-2,4*
O'z-o'zini qabul qilish	9,4	7,5	-2,1*

«O'z-o'ziga ishonch» omili bo'yicha besh yildan ortiq mehnat tajribasiga ega

bo‘lgan tashkilot direktorlarida yuqori natija qayd etildi ($t=3,4$; $p\leq 0,05$). Buni esa ularda muvaffaqiyatga intilish motivlarining ustuvor bo‘lishi hamda o‘z faoliyatidan ko‘pincha qoniqish his qilishlari, ko‘pgina hayotiy masalalarni mustaqil hal etish, faoliyati davomida o‘z ustida mustaqil ishlash, maqsadga erishish yo‘lida uchraydigan to‘siqlarni bartaraf etish usullarini yaxshi bilishi ko‘nikmalari mavjudligi kuzatildi.

Natijalardan ko‘rinadiki, besh yildan ortiq mehnat tajribasiga ega bo‘lgan tashkilot direktorlarida o‘z shaxsiy kamolotining asosiy manbai, yutuq va muvaffaqiyatlarining regulyatori deb bilishlari, o‘zlarining faoliyati hamda atrofida bilan muloqot jarayonida, maqsadga erishish yo‘lidagi ichki va tashqi to‘siqlarni bartaraf etishda qarshilik ko‘rsata olishlari mavjudligi kuzatildi.

«O‘z-o‘ziga munosabatning aks etishi» omilida besh yilgacha mehnat tajribasiga ega bo‘lgan tashkilot direktorlari besh yildan ortiq mehnat tajribasiga ega bo‘lgan tashkilot direktorlariga qaraganda yuqori natijani qayd etdi ($t=2,4$; $p\leq 0,05$). Mazkur natijalar tahliliga ko‘ra, ularda kasbiy fazilatlar, shaxsiy va ma‘naviy sifatlar, xatti-harakati va kasbiy sohasidagi yutuqlariga nisbatan o‘ziga yuqori baho berish, axloqiy me‘yor va qoidalarga amal qilish, atrofida bilan e‘tirofiga sazovor bo‘lishga intilish kabi xususiyatlarning ustunligi asoslandi.

Metodikamizning so‘ngi «o‘z-o‘zini qabul qilish» omili bo‘yicha besh yilgacha mehnat tajribasiga ega bo‘lgan maktabgacha ta‘lim tashkiloti direktorlari yuqori ko‘rsatkichni qayd etdi ($t=2,1$; $p\leq 0,05$). Ularda o‘z ichki mayllariga quloq solish, kamchilik va o‘zliklariga qaramasdan, aslida qanday inson bo‘lsa, o‘zini xuddi shunday qabul qilish, o‘zini ijobiy baholash, o‘z-o‘ziga samimiy, barcha insoniy sifatlarini qadrlash, o‘zining kamchiliklarini bartaraf etishga harakat qilish hamda kasbiy sohasidagi omadsizliklarni to‘g‘ri qabul qilgan holda yanada oldinga intilish kabi jihatlar rivojlanganligi kuzatildi.

Muallifning «Maktabgacha ta‘lim tashkiloti direktorlarining shaxsiy sifatleri indeksi» ijtimoiy-psixologik so‘rovnomasi natijalariga ko‘ra, «ijtimoiy-perseptiv» ($t=2,4$; $p\leq 0,05$), «kommunikativ» ($t=3,1$; $p\leq 0,05$), «o‘z kuchiga bo‘lgan ishonch» ($t=3,2$; $p\leq 0,05$) hamda «o‘z-o‘zini boshqarish darajasi» ($t=2,7$; $p\leq 0,05$) omillarida ishonchi farqlar kuzatildi, 4-jadvalga qarang.

4-jadval

Mualliflik ijtimoiy-psixologik so‘rovnomasi natijalari (n=120)

	Omillar	O‘rtacha(M)		Farqlar
		5 yilgacha mehnat tajribasiga ega bo‘lganlar, n=70	5 yildan ko‘p mehnat tajribasiga ega bo‘lganlar, n=50	t
1.	Ijtimoiy-perseptiv	48,5	55,5	-2,4*
2.	Kommunikativ	54,6	57,4	-3,1*
3.	O‘z kuchiga bo‘lgan ishonch	48,7	54,3	-3,2*
4.	O‘z-o‘zini boshqarish darajasi	53,5	56,7	-2,7*

Metodikaning dastlabki «ijtimoiy-perseptiv» omili bo‘yicha besh yildan ortiq

mehnat tajribasiga ega bo'lgan maktabgacha ta'lim tashkiloti direktorlarida yuqori natija qayd etildi ($t=2,4$; $p\leq 0,05$). Ma'lum bo'lishicha, ularda boshqalarni idrok qilish, tushuna olish, suhbatdosh bilan bo'ladigan faoliyat, aloqa istiqbolini aniqroq belgilash, ularning fikrlari va tasavvurlarini hamda o'zini xayolan suhbatdoshi o'rniga qo'yish orqali uning kechinmalari va hissiyotlarini tushunishga intilishlari, o'z fikr va kechinmalarini tahlil qilish va mulohaza yuritish kabi xususiyatlarning mavjudligi dalillandi.

Metodikaning navbatdagi «kommunikativ» omili bo'yicha ham ahamiyatli darajadagi farqlar qayd etildi ($t=3,1$; $p\leq 0,05$). Jumladan, besh yildan ortiq mehnat tajribasiga ega bo'lgan maktabgacha ta'lim tashkiloti direktorlarida ijobiy natija kuzatildi. Ularda muloqotda so'zning motivatsion funksiyasidan samarali foydalanish, ma'lumotlarni aniq, tizimli bayon qilish, nutqning ta'sirchanligini oshirish uchun paralingvistik ta'sir vositalarini qo'llash ko'nikmasining ustuvor ekanligi aniqlandi. Besh yilgacha mehnat tajribasiga ega bo'lgan maktabgacha ta'lim tashkiloti direktorlari o'rtachadan quyi natijalarni qo'lga kiritilganligi, mazkur sinaluvchilarda muloqotchanlik, muloqotda suhbatdoshning dunyoqarashiga mos ravishda axborotni ratsional qabul qilish, qayta ishlash hamda uzatish ko'nikmasining yetarli darajada rivojlanmaganligidan dalolat beradi. Maktabgacha ta'lim tashkiloti direktorlarida muloqot auditoriyasining rang-barangligi axborotni qabul qilish va uzatish jarayonida paralingvistik, ekstrolingvistik ta'sir mexanizmlaridan samarali foydalanish muhim ekanligi ma'lum bo'ldi.

Keyingi «o'z kuchiga bo'lgan ishonch» omili bo'yicha, besh yildan ortiq mehnat tajribasiga ega bo'lgan maktabgacha ta'lim tashkiloti direktorlarida ijobiy natijalar kuzatildi ($t=3,2$; $p\leq 0,05$). Bu shundan dalolat beradiki, ular o'z kasbining mohir ustasi ekanligi, kasbiy hamda shaxsiy fazilatlarining etarli darajada rivojlanlanganligi, o'z sohasida ko'plab yutuqlarga erishganligi, ichki emotsional jihatdan barqarorlikning mavjudligi, ko'plab insonlar bilan munosabatga kirisha olishlari, muvaffaqiyatga erishishga intilish darajasining yuqoriligi hamda irodaviy sifatning yaxshi shakllanganligi o'z kuchiga bo'lgan ishonchning yanada oshishiga xizmat qilar ekan.

Mazkur natijalarga ko'ra, ularda vaziyatdan kelib chiqib mustaqil qaror chiqarish, moslashuvchan va o'zgaruvchan sharoitlarga tezda ko'nikish, maqsadga erishishda adekvat munosabatda bo'lish, yuqori yutuq motivatsiyasi bilan maqsadga erishishga to'sqinlik qiladigan shaxsiy, xarakterli xususiyatlarning ta'sirini yo'qotishga intilish kabi jihantlar mavjudligi aniqlandi. Bu esa ularda mazkur xususiyatlarning mavjudligi shaxsiy sifatlarni yuqori darajada rivojlanishi, pedagogik-psixologik mahoratning oshishi, dunyoqarashning kengayishi, intellectual jihatdan o'zini o'zi takomillashtirishiga xizmat qiladi.

5-jadvalda "Maktabgacha ta'lim tashkiloti direktorlarining shaxsiy sifatlari indeksi" hamda Marlou-Krouning "Shaxsning axloqiy-etik mas'uliyat sifatlarni o'rganish" metodikalari o'rtasidagi korrelyatsion bog'lanishlar aniqlangan, natijalariga ko'ra «Ijtimoiy-perseptiv» omili «Axloqiy – estetik vaziyatlarga refleksiya» ($r=0,29$; $p\leq 0,05$) va «Axloqiy – estetik sohadagi intuitsiya (sezgirlik)» ($r=0,42$; $p\leq 0,05$) bilan ijobiy ahamiyatli bog'lanishlarga ega ekanligi aniqlangan.

5-jadval

**“Maktabgacha ta’lim tashkiloti direktorlarining shaxsiy sifatleri indeksi”
hamda Marlow-Krouning “Shaxsning axloqiy-etik mas’uliyat sifatlarini
o‘rganish” metodikasi o‘rasidagi korrelyatsion bog‘lanish, (n=120)**

Omillar	Ijtimoiy- perseptiv	Kommunikat ivlik	O‘z kuchiga bo‘lgan ishonch	O‘z-o‘zini boshqapish dapajasi
Axloqiy – estetik vaziyatlarga refleksiya	0,29*	0,08	0,09	0,40*
Axloqiy – estetik sohadagi intuitsiya (sezgirlik)	0,42*	0,11	0,33*	-0,05
Ekzistensial mas’uliyat (mavjud bo‘lgan)	-0,04	-0,17	0,37*	-0,07
Altruistik (fidoiylik) tuyg‘ular	-0,08	0,41*	0,04	0,46*
Axloqiy – estetik qadriyatlar	0,12	0,28*	0,16	0,07

Maktabgacha ta’lim tashkilotlari direktorlarining xodimlari bilan shaxslararo munosabatlarida bir-birini tushunish, idrok etishlarida axloqiy-estetik vaziyatlardagi o‘zini tahlil qilish ustuvor harakterga ega ekanligi aniqlangan. Direktorlarda oliy hislardan axloqiy, estetik kechinmalarni shaxslararo munosabatlardagi bir-birini idrok etish bilan uyg‘undir. Maktabgacha ta’limdagi “rahbar-xodim”, “rahbar-ota-onalar” bilan munosabatlar tizimida yuzaga keladigan kasbiy mas’uliyat va burchning namoyon bo‘lishidagi refleksiya, identifikatsiya, stereotipizatsiyani kuchli ekanligi aniqlangan. Bundan tashqari, kasbiy faoliyat yo‘nalishiga bog‘liq holda axloqiy-estetik intuitsiya ham shaxslararo munosabatlardagi bir-birini tushunish jarayonida muhim o‘ringa ega. Yuqorida aytib o‘tganimizdek, maktabgacha ta’lim direktorlari o‘z xodimlari, pedagogik jamoa hamda ota-onalar bilan muloqot qilar ekan, ularni holatini tushunishi uchun axloqiy vaziyatlarni tahlil qilishni va idrok etishni bilishi lozim. Tarbiyachi va tarbiyalanuvchilar bilan bo‘ladigan munosabatlar tizimidagi axloqiy vaziyatni intuitiv baholashni ham bilishi muhim o‘ringa ega. Vaziyatni intuitiv baholashi uchun esa, unda ijtimoiy persepsiya xususiyati shakllangan bo‘lishi lozim. Shu boisdan, mazkur mezonlar orasida bog‘lanishlar aniqlangan.

«Kommunikativlik» omili «Altruistik (fidoiylik) tuyg‘ular» ($r=0,41$; $p\leq 0,05$) hamda «Axloqiy – estetik qadriyatlar» ($r=0,28$; $p\leq 0,05$) orasidagi ijobiy ahamiyatli bog‘lanishlar ham diqqatga sazovordir. Maktabgacha ta’lim tashkiloti direktorlarining kommunikativ xususiyatlari konstruktiv shaxslararo munosabatlar tizimiga zamin hozirlaydi. Bunda direktorlardan fidoyilik, o‘zaro munosabatlarda beg‘arazlik tamoyiliga asoslangan munosabatlar muhim o‘ringa ega. Chunki, maktabgacha ta’lim tashkiloti direktorlari “bolalarni sevish va ularga g‘amxo‘rlik qilish” lozim bo‘lib, bu esa fidoyilikni talab etadi. Har qanday holatda ham kasbiga va atrofdagilarga nisbatan altruistik munosabat esa albatta muloqotdagi kommunikativlikda namoyon bo‘ladi. Shaxslararo munosabatlardagi altruistik tuyg‘ular, ya’ni hamdard bo‘lish, tushunish,

simpatiya, mehribonlik insonning qadriyatlarini tizimi bilan bog'liq. Bu esa albatta shaxslararo munosabatlardagi kommunikativlik xususiyatini konstruktiv shaklda namoyon bo'lishiga olib keladi. Shu boisdan, mazkur mezonlar orasida ijobiy bog'lanishlar aniqlangan.

Maktabgacha ta'lim direktorlaridagi «O'z kuchiga bo'lgan ishonch» omili «Axloqiy – estetik sohadagi intuitsiya (sezgirlik)» ($r=0,33$; $p\leq 0,05$) hamda «Ekzistensial mas'uliyat (mavjud bo'lgan)» ($r=0,37$; $p\leq 0,05$) bilan ahamiyatli ijobiy bog'lanishlarga ega bo'lganligi bilan ham ahamiyatlidir. Rahbarning o'z kuchiga bo'lgan ishonchi uning kasbiy mavqei va jamoadagi obro'sini belgilab beradi. Malakali rahbar atrofida sodir bo'layotgan hodisalarni tahlil qilish, axloqiy tamoyillari asosida baholar ekan, intuitiv tarzda uni natijasini ham prognozlay boshlaydi, bu esa uning o'ziga bo'lgan ishonchini yanada mustahkamlaydi va jamoadagi ijtimoiy mavqei tasdiqlashga xizmat qiladi. Rahbar o'z qo'l ostidagilarni professional o'sishi uchun sharoit yaratishga, maktabgacha ta'lim tarbiyalanuvchilarining psixologik farovonligi, o'sishi va ma'nan, axloqan, aqlan kamol topishi uchun didaktik vositalarni ta'minlab berishi zarur. Agar rahbar yuqorida sanab o'tilgan mas'uliyatli vazifalarni o'rnida va joyida amalga oshirsa, bu uning o'z kuchiga, professional zakovatiga bo'lgan ishonchini yana bir qadar ortishiga xizmat qiladi.

